

**INKLYUZIV TA'LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

Jo'rayev Bahodir Alisher O'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada yangilanayotgan ta'lim tizimida ya'ni inklyuziv ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni o'rni va ahamiyati, dolzarbligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Ixtisoslashtirilgan maktab, alohida ta'lim, ijtimoiy rivojlantirish, qo'shimcha pedagogik ta'lim, funksional chekinish, kompensatsiyalash.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir", – dedi Prezident Sh Mirziyoyev¹. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlanadi. Afsuslar bo'lsinki ko'p hollarda mahsus ta'limga muhtoj bollar ta'limdan ajralib qolmoqdalar. Bunga asosiy sabablar qilib esa eng birinchi ota-onalarning farzandiga bo'lgan e'tiborining pastligi bo'lsa, yana biri bolaning o'qishi uchun ta'lim muassasasining shu hududda mavjud emasligi yoki uzoqligi bola uchun juda ayanchli holdir. Bu vaziyatda bola bilan ta'limiy-tarbiyaviy tuzatish ishlari olib borilmas ekan, nuqson darajasi og'irlashadi yoki ikkilamchi nuqsonlar yuzaga keladi. Bu esa jamiyatning ma'lum darajada rivojlanishiga to'siq bo'ladi. Mana shunday muammolarning yuzaga kelmasligi uchun mahsus ta'limga muhtoj bo'lgan bollarining haq –huquqlarini to'laligicha ta'minlash maqsadida ham inklyuziv

¹ 2020.10.30.Shavkat-Mirziyoyev-raislidagi talim sohasidagi muammolar-ularni hal etish va talim-sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidan

ta'limni joriy etish masalalari keng tus olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni ² bilan 2024-yil 1-avgustdan boshlab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Ijtimoiy himoya milliy agentligi) tuzilmasiga o'tkazilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilgan edi.

Asosiy qism. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning ta'lim va tarbiyasiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta'limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo'lib, buning natijasida nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga erta tashxis qo'yish va ularga yordam ko'rsatish davlat tizimi ilmiy o'rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash zarur. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta'limga bag'ishlanganligi diqqatga sazovordir.

20-modda. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari

² "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni

bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.³

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan⁴. Shunday qilib, inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ushbu ta’lim modelida tashkiliy, huquqiy, uslubiy axborot va kadrlar muammolarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi esa - ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir:

- inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish (maqsadli malaka oshirish kurslari):

- pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta’lim metodikasiga oid o‘quv materiallarini takomillashtirish;

³ O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son “TA’LIM TO‘G‘RISIDA”gi Qonuni.– T.:2020.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

- inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirish, inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish (ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish);

- o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish (metodik qo'llanma va tavsiyalar);

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

- inklyuziv ta'limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishga e'tibor qaratish;

- inklyuziv ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish;

- xalq ta'limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo'yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta'limini amalga oshirish mexanizmlarini ko'zda tutuvchi o'quv kurslarini kiritish;

- masofaviy kurslarni yo'lga qo'ygan holda, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarini oshirish;

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- Inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

- inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish.

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun sport to'garaklarini tashkil qilish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o'rtasida inklyuziv ta'lim tizimi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (bulling) ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

Inklyuziv ta'limda AKTdan foydalanishning afzalliklari.

Ta'lim sohasida asosiy vositalardan biri biri bu-didaktik ta'minotlardir. Didaktik ta'minotlarga o'quv materialining o'zgargan shakllari- slayd, diagramma, jadval, test, virtual laboratoriya va boshqalarni kiritish mumkin. Bu vositalar masofadan turib ta'lim olish, mustaqil o'rganish kabi keng imkoniyatlarni yaratib beradi.

U yoki bu funksional cheklanishlari bo'lgan bolalarning ta'limiy ehtiyojlari juda ham xilma – xil. Ular bir tomondan, o'zlarining sog'lom tengdoshlari bilan bir xil bilimlar olish ehtiyojiga egalar. Boshqa tomondan esa, ularda boshqa (ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari deb belgilanadigan), funksional chekinishlar bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlar ham bor bo'lib, ular o'quv jarayonida odatdagi ta'lim metodlaridan foydalanish imkoniyatini bermaydi. Shu munosabat bilan bolalarning har turli toifalarining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan AKTlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. O'quv jarayonida AKTlardan foydalanishning afzalliklari yangi texnologiyalarning kommunikatsiya va o'zaro faoliyat jarayonini yo'lga qo'yishga, ta'lim resurrlaridan eng qulay shaklda foydalanish imkonini berishga, hamda motivatsiooni oshirishga yordam berishi bilan bog'liq hisoblanadi. AKTlarni inklyuziv ta'limda qo'llash sohalari juda ham xilma – xil bo'lishiga qaramay, ulardan foydalanishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- Kompensator (o'rnini bosish) masalalarini hal etish uchun AKTlar;
- Didaktik masalalarni hal etish uchun AKTlar;
- Kommunikativ masalalarni hal etish uchun AKTlar;

Bunday yondashuvni hisobga olgan holda AKTlarning o'quv jarayonidagi rolni shu asosiy kategoriyalarga muvofiq bayon qilinadi. AKTlardan foydalanishlarning alohida ehtiyojli bolalar uchun afzalliklari:

- Kompyuterlar bolalarning avtonomligini va ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi;
- Alohida ta'limiy ehtiyojlari bo'lgan bolalar topshiriqlarni o'zining o'quv faoliyati maromida bajara oladilar;
- Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlarining ko'radigan tengdoshlari bilan bir qatorda internetdan foydalanish imkoniyatini oladilar;
- Ixtisoslashtirilgan qurilmalar va dasturlar kommunikatsiyada qiyinchiliklari bo'lgan bolalar orasidagi, ularning tengdoshlari va o'qituvchilari bilan o'zaro munosabatni yengillashtiradi;

- Kommunikatsiyaning texnika vositalaridan foydalanish bolalarni maktabda ham, jamoatda ham yoqimli imidjni hosil qiladi;

- Bolalarning AKTlarga ishonchi ularning uy vazifalarini tayyorlash va boshqa ehtiyojlari uchun internetdan foydalanishlariga yordam beradi. Va shu bilan birga AKTdan foydalanish faqat alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalarga emas balki o'qituvchi va pedagoglar uchun ham sifatli afzalliklarga ega bo'lib, ular:

- AKTlardan foydalanish inklyuziv ta'limda ishlayotgan pedagoglarning hamkasblari bilan munosabatda bo'lishlariga imkoniyat yaratib, ularning ajralib qolishlarini kamaytirishga yordam beradi;

- Real vaqt rejimida kommunikatsiyani amalga oshirish imkoniyati o'z kasbiy faoliyatini anglashning, ya'ni refleksiyaning rivojlanishiga yordam beradi;

- AKTlardan foydalanish pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini takomillartiradi;

- Texnologiyalarni tengdoshlari bilan munosabatlar jarayoniga qo'shish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi;

- Axborot resurslarining electron shakli ta'limdan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda oshiradi.

Inklyuziv ta'limda AKTlarni qo'llash juda katta imkoniyatlarga ega, lekin bu yo'lda ko'p qiyinchiliklar mavjud, yangi texnologiyalar ta'lim tizimining an'anaviy tartibini o'zgartirib, alohida ehtiyojli bolalar ta'limidagi ilgari passiv yondashuvlarga nisbatan munosib alternativlarni ilgari suradi. Mavjud shubhasiz afzalliklariga qaramay, agar ularni bolalarning individual ehtiyojlarini va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyati tamoyillarini hisobga olmagan holda qo'llanilsa, bunday texnologiyalar ta'limga to'sqinlik qilishi mumkin. Yangi texnologiyalar bolalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga imkon beradi. Masalan, harakat nuqsonlari bo'lgan holda AKT yozish imkonini beradi, ko'rish nuqsonlari bo'lgan holda esa, o'qish jarayonini amalga oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, texnologiyalar bolalarning o'z atrof - muhitlarini boshqarish, o'quv va ijtimoiy masalalar yechimini qo'llab quvvatlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, hamda axborot resurslaridan foydalanish imkonini

beradi. Boshqachasiga aytganda, texnologiyalar organizmning tabiiy funksiyalaridagi yetishmovchiliklarining o'rnini bosish (kompensatsiyalash) imkoniyatini beradi va shu bilan bilan birga bolalar tomonidan bilimlarni olish va o'zlashtirish jarayonlarini optimallashtiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limning ahamiyati bolalarni ilk yoshdanoq sog'lom bolalar safiga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda ruhiy, ma'naviy va jismoniy hissiyotlarini harakatlantirishni o'stirishdan iborat. Inklyuziv ta'lim bolaga-o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish, mustaqil va birgalikda harakatlanish, va hamkorlikda ishlay olish imkonini yaratib beradi. Bu jarayonda bolada dunyoqarash kengayib boradi, hayotiy tajribalari oshib boradi va qiziqishlari o'sib o'qishga bo'lgan ehtiyoji yuqorilab boraveradi. Shuningdek inklyuziv ta'limda AKT ning qo'llanilishi ham bolada ijobiy jihatlarni shakllantirib, sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda darslarda faolligini yanada oshirib beradi. O'zlashtirishdagi ma'lum bir qiyinchiliklar endi unga o'zgacha pozitivlik bera boshlaydi. Ko'pchilik bunday ta'lim oluvchilar o'zlarini aynan shu sohada ya'ni Axborot kommunikatsiyalari bilan band qilib hozirgi zamonaviy sohalardan biriga aylangan va yangiliklar eng ko'p kiritilayotgan bir qatlamga kirib bormoqdalar. Bu esa ularning darajasiga qarab Ijtimoiy hayotga yanada tezroq kirish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi muammolar ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidan 2020-yil, 30-oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son "TA'LIM TO'G'RISIDA"gi Qonuni.–T.:2020.

4. Pulatova, D., Boboxonova, M. (2023). Aktdan foydalanish jarayonida o'qituvchi imkoniyatlarini maktab o'quvchilari, talabalar va o'qituvchilarni axborot bilan ta'minlash. Академические исследования в современной науке, 2(12),78-86.
5. Захарова, Т. Т., & Егорова, В. Г. (2017). Педагогические условия подготовки будущих учителей к правовому образованию и воспитанию учащихся. Педагогические и социально-психологические основы научного развития общества: сборник статей, 108.
6. Махмудов, Ш. К. (2021). Профессионализм и формирование педагогических способности. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 45-50.